

## KICHIK VA O`RTA BIZNESDA YOSHLAR BANDLIGINI TA`MINLASH UCHUN BIZNES KO`NIKMALARINING ROLI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20536921>

*Talaba:* **Muxammedova Jasmina**

*Ilmiy rahbar:* dotsent, **Jurayeva Zilola Turobovna**

*Marketing va menejment kafedrası*

*Buxoro davlat universiteti*

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada yoshlar bandligini ta'minlashda ta'lim sifati, iqtisodiy bilimlar va biznes ko'nikmalarining o'zaro bog'liqligi ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilingan. Yoshlarning mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishi uchun faqat diplomga ega bo'lish yetarli emasligi, balki moliyaviy savodxonlik, tadbirkorlik tafakkuri, biznes-reja tuzish, raqamli texnologiyalardan foydalanish, marketing va boshqaruv ko'nikmalari muhim ahamiyat kasb etishi asoslab berilgan. Maqolada O'zbekistonda yoshlar soni, yoshlar ishsizligi, davlat dasturlari va yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga oid statistik ma'lumotlar tahlil qilingan. Shuningdek, 18–30 yoshdagi yoshlarning ishga joylashish va tadbirkorlik faoliyatini boshlashda duch kelayotgan asosiy muammolari aniqlangan. Maqola yakunida ta'lim muassasalari, mahalla, banklar, ish beruvchilar va yoshlar yetakchilari hamkorligida "ta'lim – ko'nikma – tadbirkorlik – bandlik" zanjirini kuchaytirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

### **Kalit so'zlar**

yoshlar bandligi, ta'lim sifati, iqtisodiy bilim, biznes ko'nikmalari, yoshlar tadbirkorligi, mehnat bozori, moliyaviy savodxonlik, kasbiy kompetensiya.

### **Abstract**

This article analyzes the relationship between the quality of education, economic knowledge and business skills in ensuring youth employment from a scientific, theoretical and practical perspective. It is argued that for young people to be competitive in the labor market, it is not enough to have a diploma alone, but financial literacy, entrepreneurial thinking, business planning, use of digital technologies, marketing and management skills are also important. The article analyzes statistical data on the number of young people in Uzbekistan, youth unemployment, state programs and support for youth entrepreneurship. It also identifies the main problems faced by young people aged 18–30 in finding a job and starting a business. At the end of the article, scientific and practical

recommendations are developed in cooperation with educational institutions, neighborhoods, banks, employers and youth leaders to strengthen the “education - skills - entrepreneurship - employment” chain.

### **Keywords**

youth employment, quality of education, economic knowledge, business skills, youth entrepreneurship, labor market, financial literacy, professional competence.

Bugungi global iqtisodiyotda yoshlar bandligi masalasi har bir davlatning ijtimoiy barqarorligi, iqtisodiy o'sishi va inson kapitali rivojlanishini belgilovchi muhim omillardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, aholisi yosh bo'lgan mamlakatlarda yoshlarni munosib ish bilan ta'minlash, ularning tadbirkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish hamda mehnat bozori talablariga mos bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirish strategik ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston sharoitida ushbu masala alohida dolzarb masala hisoblanadi.

2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 14–30 yoshdagi yoshlar soni 9 630 556 nafarni tashkil etib, bu jami aholining 25,7 foiziga teng. Buxoro viloyatida esa ushbu yosh toifasi 514 041 nafarni yoki viloyat aholisining 24,7 foizini tashkil etgan. Bu ko'rsatkichlar yoshlar siyosati, ta'lim va bandlik masalalari mamlakat uchun faqat ijtimoiy emas, balki iqtisodiy taraqqiyot masalasi ham ekanini ko'rsatadi[1].

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda umumiy ishsizlik darajasi 2025-yilda 4,6 foiz atrofida bo'lgan. Biroq yoshlar o'rtasidagi ishsizlik darajasi bundan yuqoriroq: 15–24 yoshdagi yoshlar ishsizligi 2025-yilda 11,381 foiz, 2024-yilda esa 10,809 foiz bo'lgan. Bu holat yoshlarning mehnat bozoriga kirishida malaka, tajriba, kasbiy yo'nalish va biznes ko'nikmalari bilan bog'liq muammolar saqlanib qolayotganini anglatadi.

Xalqaro mehnat tashkiloti yoshlar bandligini XXI asrning eng dolzarb mehnat bozori muammolaridan biri sifatida baholaydi. Shu nuqtai nazardan, ta'lim sifati va iqtisodiy bilimlar yoshlarning ishga joylashishi, o'zini o'zi band qilishi va tadbirkorlik faoliyatini boshlashida asosiy resurs sifatida namoyon bo'ladi[2].

Mavzuning dolzarbligini bir necha omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, O'zbekistonda yoshlar demografik jihatdan katta ijtimoiy qatlamni tashkil etadi. Bu esa ularni mehnat bozoriga sifatli tayyorlashni davlat siyosati va ta'lim tizimining ustuvor vazifasiga aylantiradi.

Ikkinchidan, zamonaviy mehnat bozorida ish beruvchilar faqat nazariy bilimga emas, balki amaliy ko'nikma, raqamli savodxonlik, tashabbuskorlik, jamoada ishlash, muammoni hal qilish va biznes fikrlash qobiliyatiga ega yosh kadrlarni talab qilmoqda. Mehnat bozori ehtiyojlarining tez o'zgarishi ta'lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirishni taqozo etadi.

Uchinchidan, yoshlar tadbirkorligi faqat ishsizlikni kamaytirish vositasi emas, balki yangi ish o'rinlari yaratish, innovatsion g'oyalarni amaliyotga joriy etish va mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish mexanizmi hisoblanadi. Shu sababli yoshlarni biznes yuritish madaniyati, moliyaviy savodxonlik va boshqaruv ko'nikmalari bilan qurollantirish bandlik siyosatining tarkibiy qismiga aylanishi lozim[3].

Izlanishlar maqsadi – yoshlar bandligini ta'minlashda ta'lim sifati, iqtisodiy bilimlar va biznes ko'nikmalarining rolini ilmiy asoslash hamda yoshlar tadbirkorligini boshqarishni takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Yuqorida belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

1. yoshlar bandligiga ta'sir etuvchi ta'limiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillarni tahlil qilish;
2. yoshlar ishsizligi va tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga oid statistik ma'lumotlarni o'rganish;
3. iqtisodiy bilim va biznes ko'nikmalarining yoshlar bandligidagi ahamiyatini aniqlash;
4. "ta'lim – ko'nikma – tadbirkorlik – bandlik" mexanizmini kuchaytirish bo'yicha takliflar tizimini ishlab chiqish.

Yoshlar bandligini ta'minlashda uchta asosiy omil hal qiluvchi ahamiyatga ega:

- ta'lim sifati;
- iqtisodiy bilimlar;
- biznes ko'nikmalari[4].

Ushbu omillar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ta'lim sifatli bo'lmasa, yoshlarda iqtisodiy fikrlash shakllanmaydi; iqtisodiy bilimlar yetarli bo'lmasa, tadbirkorlik tashabbusi samarali biznesga aylanmaydi; biznes ko'nikmalari rivojlanmagan bo'lsa, yoshlar mehnat bozorida raqobatbardosh bo'la olmaydi.

Ta'lim sifati yoshlarni faqat nazariy bilim bilan ta'minlashdan iborat emas. U kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, mustaqil qaror qabul qilish, raqamli texnologiyalardan foydalanish, kommunikatsiya, tahliliy fikrlash va muammoni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi. Shu bois ta'lim jarayoni real sektor ehtiyojlari, mahalliy mehnat bozori talab va takliflari hamda tadbirkorlik ekotizimi bilan chambarchas bog'lanishi zarur[5].

Iqtisodiy bilimlar yoshlarning daromad, xarajat, jamg'arma, investitsiya, kredit, soliq va bozordagi raqobat kabi tushunchalarni to'g'ri anglashiga xizmat qiladi. Ayniqsa, o'z biznesini boshlash istagidagi yoshlar uchun moliyaviy savodxonlik va hisob-kitob madaniyati zaruriy shart hisoblanadi.

## 1-jadval.

### O'zbekistonda yoshlar bandligiga oid ayrim statistik ko'rsatkichlar<sup>2</sup>

Ko'rsatkich	Ma'lumot
14-30 yoshdagi yoshlar soni, 2025-yil 1-yanvar	9 630 556 nafar
Yoshlarning jami aholidagi ulushi	25,7 foiz
Buxoro viloyatida 14-30 yoshdagi yoshlar soni	514 041 nafar
O'zbekistonda umumiy ishsizlik darajasi, 2025-yil	4,6 foiz
15-24 yoshdagi yoshlar ishsizligi, 2025-yil	11,381 foiz
15-24 yoshdagi yoshlar ishsizligi, 2024-yil	10,809 foiz

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, yoshlar O'zbekiston aholisining muhim qismini tashkil etadi. Shu bilan birga, yoshlar ishsizligi umumiy ishsizlik darajasidan yuqori. Bu holat ta'lim muassasalarida berilayotgan bilimlar bilan mehnat bozori talablari o'rtasida muayyan nomutanosiblik mavjudligini ko'rsatadi.

Yoshlar bandligini oshirishda kasbiy tayyorgarlik va amaliy ko'nikmalarni kuchaytirish, tadbirkorlikni rag'batlantirish, shuningdek, bitiruvchilarni ish beruvchilar bilan bevosita bog'lovchi mexanizmlarni rivojlantirish muhimdir.

O'zbekistonda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish orqali bandlikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2025-yilda ishsiz va biznesini boshlash istagida bo'lgan 384,4 ming nafar yoshni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan "Yoshlar bandligi dasturi" qabul qilinib, 354,1 ming nafar, ya'ni 92 foiz yoshning bandligi ta'minlangan.

Shuningdek, "Yoshlar biznesi" dasturi doirasida 9 081 ta loyihaga 1 trln 151,5 mlrd so'm imtiyozli kredit ajratilgani va 12 071 nafar ishsiz yoshning bandligi ta'minlangani qayd etilgan. "Kelajakka qadam" dasturi doirasida esa 4 489 nafar talabaning 199,3 mlrd so'mlik biznes loyihalari moliyalashtirilgan, 45,9 ming nafar bitiruvchining bandligi ta'minlangan.

Bu ma'lumotlar yoshlar tadbirkorligi bandlik siyosatining amaliy vositasiga aylanganini ko'rsatadi. Biroq imtiyozli kredit va subsidiyalar samarali natija berishi uchun yoshlarda biznes-reja tuzish, xarajat va daromadni hisoblash, bozorni o'rganish, mijoz bilan ishlash, raqamli marketing va soliq madaniyati bo'yicha yetarli bilim bo'lishi lozim.

Shuni qayd etish kerakki, yoshlar bandligini ta'minlash masalasini faqat ish o'rinlari yaratish orqali hal qilib bo'lmaydi. Bu jarayonda yoshlarni mehnat bozoriga tayyorlash, ularda iqtisodiy fikrlashni shakllantirish, tadbirkorlik

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, Jahon banki va FRED ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

tashabbuslarini boshqarish va amaliy biznes ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim sifati yoshlar bandligining birinchi asosiy shartidir. Agar ta'lim jarayoni mehnat bozori talablari bilan bog'lanmasa, bitiruvchi diplomga ega bo'lsa ham, ish beruvchi talab qiladigan amaliy ko'nikmalarga ega bo'lmasligi mumkin. Shu sababli ta'lim muassasalarida "kasbiy kompetensiya – amaliy tajriba – ishga joylashish" tamoyili asosida o'qitishni tashkil etish zarur.

Iqtisodiy bilimlar yoshlarda daromad, xarajat, jamg'arma, investitsiya, kredit, soliq va bozor munosabatlarini to'g'ri tushunishga xizmat qiladi. Moliyaviy savodxon yosh kredit olishda xatarlarni baholaydi, biznes-rejani puxta tuzadi va resurslardan samarali foydalanadi[6].

Biznes ko'nikmalari esa yoshlar tadbirkorligining amaliy asosidir. Biznes g'oyaning muvaffaqiyati faqat mablag'ga emas, balki bozorni o'rganish, raqobatni tahlil qilish, mahsulot yoki xizmatni to'g'ri taklif etish, mijozlar bilan ishlash va raqamli kanallardan foydalanish qobiliyatiga bog'liq.

Yoshlar bandligini ta'minlashda ta'lim sifati, iqtisodiy bilimlar va biznes ko'nikmalari o'zaro bog'liq strategik omillar hisoblanadi. Yoshlarning ish bilan ta'minlanishi faqat davlat dasturlari yoki ish o'rinlari soniga bog'liq emas; bu jarayon yoshlarning bilim darajasi, kasbiy tayyorgarligi, iqtisodiy fikrlashi va tadbirkorlik tashabbuslarini samarali boshqara olishi bilan bevosita bog'liq[7].

O'zbekistonda yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun yoshlarda amaliy biznes ko'nikmalarini rivojlantirish, ta'limni mehnat bozori bilan bog'lash va iqtisodiy bilimlarni ta'lim jarayoniga chuqurroq integratsiya qilish talab etiladi. Shu asosda "ta'lim – ko'nikma – tadbirkorlik – bandlik" modeli yoshlar bandligini ta'minlashning samarali mexanizmi sifatida xizmat qilishi mumkin. Bu borada ishlar samaradorligini oshirish uchun quyidagilarni tavsiya sifatida qabul qilish mumkin, deb hisoblaymiz:

1. "Bitiruvchi – ish beruvchi – tadbirkor" elektron platformasini kuchaytirish lozim. Platforma orqali bitiruvchilarning ko'nikmalari, vakansiyalar, amaliyot joylari va startap grantlari bir tizimga birlashtirilishi maqsadga muvofiq.

2. Yoshlar tadbirkorligi uchun berilayotgan imtiyozli kreditlarni biznes-ta'lim bilan bog'lash zarur. Ya'ni kredit olishdan avval yoshlar qisqa muddatli biznes-reja, moliyaviy savodxonlik va risklarni boshqarish kurslaridan o'tishi lozim.

3. Kasbiy ta'lim va amaliyotni ishlab chiqarish bilan integratsiya qilish kerak. Ta'lim muassasalari mahalliy korxonalar, xizmat ko'rsatish subyektlari va banklar bilan hamkorlikda amaliy mashg'ulotlar tashkil etishi zarur.

4. Yoshlar bandligini baholashda faqat ishga joylashish ko'rsatkichi emas, balki ish sifati, daromad barqarorligi va kasbiy o'sish imkoniyati ham hisobga olinishi lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston yoshlari – 2030" strategiyasini tasdiqlash hamda yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-66-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/63005-o-zbekistonda-yoshlar-soni-qancha>
4. Hamroqulov, U., & Ziyavitdinov, H. H. (2025). XODIMLAR ISH FAOLIYATINI BAHOLASHDA OBYEKTIVLIK VA SHAFFOFLIK MASALALARI. *Научный Фокус*, 3(31), 313-317.
5. Turobovna, J. Z., & Sevara, D. (2025). INSON KAPITALINING IQTISODIY MOHIYATI VA UNI BOSHQARISH XUSUSIYATLARI. ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNGA QARATILGAN KREATIV G'OYALAR, TAKLIFLAR VA YECHIMLAR, 8(83), 146-150.
6. World Bank Data. Uzbekistan indicators. URL: <https://data.worldbank.org/country/uzbekistan>
7. FRED, Federal Reserve Bank of St. Louis. Youth Unemployment Rate for Uzbekistan. URL: <https://fred.stlouisfed.org>